

# 2018 yil 8 oy uchun standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi ishlar holati to'g'risida

## ANALITIK MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi) texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat tizimlarini boshqarish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy organi hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligining asosiy vazifalari:

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish sohalarida O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida", "Metrologiya to'g'risida", "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida", "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonunlarni va boshqa qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarni amaliy jihatdan amalga oshirishni ta'minlashdan;
- xalqaro standartlarni qo'llash asosida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, jumladan sifat tizimini boshqarish va boshqa sohalarda yagona davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat.

### Qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha

Qonunchilik bazasini takomillashtirish maqsadida 2 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori loyihasi (PQ-3526, BIPM bo'yicha PQ loyihasi), 3 ta Vazirlar Mahkamasining qarori loyihalari ishlab chiqildi (908-son 13.11.2017, 21-son 10.01.2018, 112-son 15.02.2018) hamda 2 ta Vazirlar Mahkamasining qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasi o'rnatilgan tartibda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3529-son qaroriga muvofiq "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Shuningdek, metrologiya sohasini xalqaro normalar bilan uyg'unlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri ishlab chiqildi hamda tegishli vazirlik, idoralar bilan kelishilib Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Avtotransport vositalarining eksport saloxiyatini oshirish, shuningdek, respublikada ushbu soxada bajarilayotgan sinov natijalarini xalqaro darajada tan olinishiga erishish maqsadida BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi yagona va global qoidalarini qo'llash bo'yicha Bitim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3526-son qarori bilan ratifikatsiya qilindi.

Respublikada organik mahsulotlarni ishlab chiqishni kengaytirish yuzasidan Xukumat qarori loyihasi tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasiga va "O'zbekoziqovqatxolding" XKga kiritildi.

Ma'lumot uchun: qaror loyihasi kelgusida qayta ishlash va tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish uchun Qishloq ho'jaligi vazirligiga yuborildi.

Energiyani tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirish maqsadida "Tashkilotni qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqarish qurilmalari tayyorlashga ixtisoslashgan tashkilot sifatida identifikatsiyalash mexanizmi

to'g'risidagi Nizom" ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 noyabrdagi 908-son qarori bilan tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son qaroriga muvofiq ichki turizmni rivojlantirish, hamda yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan transport vositalarini sertifikatlashtirishni soddalashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 25 apreldagi 237-sonli qarori bilan tasdiqlangan Umumiy texnik reglamentga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Xukumat qarori loyihasi ishlab chiqildi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Shuningdek, xorijiy tajribani (Yaponiya, Koreya, MDH davlatlari) o'rgangan xolda tadbirkorlik faoliyatiga aralashmagan xolda iste'molchilarni hamda ichki bozorni xavfsizligi kafolatlanmagan va sifatsiz mahsulotlardan ximoyalash maqsadida savdodagi mahsulotlarni sinovdan o'tkazish tartibi va sifatsiz mahsulotlar to'g'risidagi yagona ma'lumotlar bazasani shakllantirish bo'yicha Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi Hukumat qarori loyihasi ishlab chiqildi.

### **Standartlashtirish va texnik jixatdan tartibga solish bo'yicha**

Tadbirkorlik sub'ektlariga qulaylik yaratish maqsadida 1 230 ta texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi amaldagi normativ hujjatlar "O'zstandart" agentligi veb-saytiga joylashtirildi hamda ularni bepul yuklab olish imkoni yaratildi.

2017-2018 yillarda 1133 ta xalqaro standartlar amaliyotga joriy etildi. Natijada xalqaro standartlarning soni 3807 taga yetkazildi. Jumladan, BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasining meva, sabzavot va quritilgan qishloq ho'jalik mahsulotlariga tegishli 77 ta standartlari (shulardan, 24 tasi meva, 32 tasi sabzavot va poliz ekinlari, 21 tasi quritilgan mahsulotlar uchun), Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining 24 ta "Kodeks alimentarius" standartlari qabul qilindi.

Natijada amaldagi standartlarning xalqaro talablar bilan uyg'unlashganlik darajasi 13 % dan 17,1 %ga yetkazildi.

Ma'lumot uchun: ushbu standartlar agentlikning rasmiy veb-saytida foydalanish uchun keng omma e'tiboriga xavola etildi. Qo'shimcha ravishda eksportyorlarga standart talablarini tushuntirish maqsadida 300 dan ziyod seminarlar o'tkazilib, 2000 dan ortiq konsultativ xizmatlar ko'rsatildi.

"Xalol" standarti qabul qilinib, sertifikatlashtirish idorasining faoliyati yo'lga qo'yildi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini Yevropa bozorlariga eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida xalqaro "Global G.A.P." standarti qabul qilindi.

Islom davlatlari standartlashtirish va metrologiya instituti (SMIIC)ga a'zolik kelishuvini ratifikatsiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilib 2018 yil 30 aprel kuni Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

2018 yilda Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo Kegashining raisligi O'zbekiston Respublikasiga topshirilib, joriy yilning 26-28 iyun kunlari MDH davlatlarining Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralari rahbarlarining 53-yig'ilishi o'tkazish bo'yicha ishlar tashkillashtirilmoqda. Ushbu yig'ilishda kelgusi yillarda hamkorlikda Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida amalga oshiriladigan ishlar strategiyasi muhokamasi bo'lib o'tadi.

Respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xalqaro talablarga moslashtirish va tadbirkorlik sub'ektlariga qulayliklar yaratish maqsadida 1102 ta tashkilotning standartlari o'rniga 24 ta yagona talablarni belgilovchi davlat standartlari qo'rinishida ishlab chiqish rejalashtirilgan bo'lib, hozirgi kunda reja asosida 15 ta davlat standartlari ishlab chiqildi.

Ma'lumot uchun: qovrulgan pista, yong'oqva no'xotlar mahsuloti uchun 75 ta tashkilotning standarti o'rniga 1 ta davlat standarti, sanitariya – gigenik maqsadlar uchun

mo'ljallangan qog'oz va qog'oz buyumlari mahsuloti uchun 82 ta tashkilotning standarti o'rniga 1 ta davlat standarti ishlab chiqilmoqda).

Shuningdek, 7 ta (moylar, liftlar, gazda ishlaydigan uskunalar, veterinariya dori vositalari, avtomobil va avia yoqilg'i, portlash xavfi bo'lgan muhitlarda ishlovchi uskunalar, go'sht) umumiy texnik reglamentlar va 1 ta (gaz to'ldirish kompressorlari) maxsus reglament qabul qilinib, ularning umumiy soni 39 taga yetkazildi. Natijada, respublikada 1 600 ta standartlarni qo'llanishi ixtiyoriylikka o'tkazildi.

### **Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish va eksportga ko'maklashish bo'yicha**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 iyundagi PQ-3077-son qaroriga muvofiq muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtirish muddatlari 3 ish kunigacha qisqartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoniga asosan, deklaratsiya yo'li bilan muvofiqligi tasdiqlanadigan mahsulot turlari 15 tadan 45 tagacha oshirildi.

"O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5414-sonli Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari"ga (Adliya vazirligidan 1458-son bilan ro'yxatga olingan) sertifikatlashtirish jarayonini soddalashtirishga qaratilgan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur o'zgartirish 2018 yil 1 iyuldan boshlab aynan bir xil tovarlarga bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakt) doirasida muvofiqlik sertifikatini bir kalendar yilidan oshmagan muddatga bir marotaba taqdim etish imkonini beradi.

Yevropa davlatlariga vino mahsulotlarini eksport qilish uchun "VI-1 sertifikati"ni berish tizimi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida «Ziyorat turizmi» ni rivojlantirish maqsadida, «O'zstandart» agentligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Din ishlar bo'yicha qo'mitaning qo'shma qaroriga muvofiq, «Halol talablar asosida mahsulotlar va xizmatlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida» gi Nizom davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun Adliya vazirligiga kiritildi.

Yevropa davlatlariga eksport qilishda qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida SYe markirovkani mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'llash uchun Turkiya, Ukraina, Germaniya va Slovakiya davlatlarining sertifikatlashtirish idoralari bilan muzokaralar o'tkazildi va hamda tegishli tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish maqsadida Kelishuv loyihalari tayyorlandi.

4,34 mlrd. so'mlik 81 dona sinov va o'lchash uskunolari xarid qilindi. Natijada, Andijonda avtomobil extiyot qismlarini, Buxoroda kimyo va idish yuvish mahsulotlarini, Surxondaryoda qishloq xo'jaligi, meva sabzavot va quritilgan meva mahsulotlari hamda Samarqandda Birlashgan millatlar tashkiloti Yevropa iqtisodiyot komissiyasi (YeEK OON)ning avtomobil mahsulotlariga bo'lgan 89 ta xalqaro standartlari talablari asosida sinash imkoni yaratildi.

Xisobot davrida 1256 ta korxonalarda sifat menejmenti tizimlari joriy etildi va bunday korxonalar soni 7698 taga yetkazildi. Shundan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 27 ta korxonada oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimi - ISO 22000 standarti joriy qilindi va ularning soni 156 taga yetkazildi.

### **Akkreditatsiya bo'yicha**

Ekspertyorlarga qulaylik yaratish maqsadida 8 ta sinov laboratoriyalari halqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. Xalqaro tan olingan muvofiqlikni baholash organlari soni

29 taga (12 ta laboratoriya, 1 ta SI, 11 ta SMT va 5 ta POI) yetkazildi. Olib borilgan ishlar natijasida rasmiylashtirilgan sertifikatlarning 89 ta davlatda tan olinishiga imkon yaratildi.

Ma'lumot uchun: sinov natijalarini chet davlatlarida tan olinishini ta'minlash borasida 2020 yilgacha tizimdagi 14 ta sinov laboratoriyalarini xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tkazish belgilangan.

### **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tadbirkorlarga va aholiga interaktiv xizmat ko'rsatish bo'yicha**

Rasmiylashtirilgan sertifikatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Yagona darcha" unifikatsiyalashtirilgan bojxona axborot tizimiga o'z vaqtida va to'liq hajmda kiritilishi ta'minlandi.

Agentlik tomonidan "Sertifikat" elektron dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq etildi hamda hisobotlar va Davlat reestrlarini on-layn rejimda olish, kelib tushgan arizalarning muddatlarini nazorat qilish, ko'rsatilayotgan xizmatlarni shaffofligi ta'minlandi.

Shuningdek, barcha sertifikatlashtirish idoralarida on-layn arizalarni qabul qilish tizimi joriy etildi.

### **Metrologiya bo'yicha**

Milliy etalonlar bazasini takomillashtirish maqsadida Spektral koeffitsienti o'tkazuvchanligi va optik zichlik hamda Harorat etalonlari harid qilinib ularning umumiy soni 12 donaga yetkazildi.

Shuningdek, o'lchash natijalarining kuzatuvchanligini ta'minlash maqsadida birinchi navbatda zarur bo'ladigan umumiy qiymati 667,6 ming dollarlik 5 turdagi etalon va yuqori aniqlikdagi o'lchov vositalarini xarid qilish bo'yicha sharnoma imzolangan.

Respublikada amalga oshirilgan o'lchovlar natijalarini xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 apreldagi "O'zbekiston Respublikasining O'lchov va tarozilar bosh konferentsiyasining assotsiatsiyalashgan a'zosi maqomini olishi to'g'risida"gi PQ-3663-sonli qarori qabul qilindi va ushbu qarorga muvofiq a'zo bo'lish bo'yicha yuborilgan murojaat xalqaro tashkilot tomonidan maqullandi.

Xalqaro Atom Energiyasi Agentligining (MAGATE) texnik yordami loyihasining 1-bosqichida radiatsion va yadroviy xafsizlik sohasida metroologik taminotni rivojlantirish maqsadida yuqori aniqlikdagi dozimetr va spektrometr xarid qilinib laboratoriya tashkil etildi. Shuningdek, ushbu loyihaning 2-bosqichida ionlashtiruvchi va rentgen nurlanish sohasidagi ikkilamchi etalonlar maxsus dozimetrik laboratoriyasini tashkil etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi shahar va tumanlarda jismoniy va yuridik shaxslar bilan 44 ta sayyor qabullar o'tkazildi.

Ushbu qabullarda kelib tushgan murojaatlar asosida viloyat markazlaridan chekka tumanlarida yashovchi aholi va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida viloyatlarning chekka tumanlarida 15 ta maishiy hisoblagichlarni qiyoslash shaxobchalari tashkil etilib, ularning soni respublika bo'yicha 37 taga yetkazildi.

### **Kadrlar tayyorlash dasturi bo'yicha**

"O'zstandart" agentligi tizimidagi mutaxassislar malakasini oshirish hamda xalqaro darajada tayyorlash maqsadida Koreya, Malayziya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Germaniya, Armaniston, Qozog'iston, Belarus va Moldova davlatlarida 310 nafar mutaxassislar amaliyot o'tadilar.

Shuningdek, Xitoy Xalk Respublikasining "Bir mintaqa Bir Makon" dasturi asosida 2018 yilda "Oziq-ovqat xavfsizligi import-eksport nazorati", "Import-eksport qishlok xo'jaligi mahsulotlarini nazorati", "Don va don mahsulotlarini qayta ishlash va tekshirish texnologiyasi" mavzularida 200 nafar xodimni Xitoy Xalk Respublikasida malakasini oshirish rejalashtirilgan.

Xalqaro tashkilotlardan ekspertlarni jalb etgan holda o'quv seminarlari tashkil etilib, ularda 50 dan ortiq mutaxassilar ishtiroki ta'minlandi. Buning natijasida 42 nafar mutaxassislar xalqaro ekspert-auditorlik maqomiga ega bo'ldilar (20 nafar xodim "Halol" standartlari bo'yicha SMIIC reestriga, 22 nafar xodim ISO 22000 standarti bo'yicha EOQ reestriga kiritildi, qolgan mutaxassislarning imtihon natijalari kutilmoqda).

Sertifikatlashtirish milliy tizimida jami 97 ta ekspert-auditorlar faoliyat yuritmoqda. 2017-2018 yillar davomida 684 ta xodim sertifikatlashtirildi.

"O'zstandart" agentligi bilan Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo texnologiya instituti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent farmatsevtika instituti va Turin politexnika universiteti talabalari bilan amaliyot o'tash, iqtidorli kadrlarni tayyorlash va ishga jalb qilish maqsadida bitim va memorandumlar imzolandi. Ular asosida oliy ta'lim muassalari bilan yillik amaliyot rejalari ishlab chiqildi.

"O'zstandart" agentligida 2017/2018 o'quv yilida Toshkent davlat texnika universitetining 124 nafar, Toshkent kimyo texnologiya institutining 51 nafar, Toshkent to'qimachilik yengil sanoat institutining 12 nafar, Toshkent farmatsevtika institutining 17 nafar talabalari ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotini o'tamoqdalar.

## 2018 yil 8 oy uchun standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi ishlar holati to'g'risida

### ANALITIK MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi) texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat tizimlarini boshqarish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy organi hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligining asosiy vazifalari:

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish sohalarida O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida", "Metrologiya to'g'risida", "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida", "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonunlarni va boshqa qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarni amaliy jihatdan amalga oshirishni ta'minlashdan;
- xalqaro standartlarni qo'llash asosida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, jumladan sifat tizimini boshqarish va boshqa sohalarda yagona davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat.

### Qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha

Qonunchilik bazasini takomillashtirish maqsadida 2 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori loyihasi (PQ-3526, BIPM bo'yicha PQ loyihasi), 3 ta Vazirlar Mahkamasining qarori loyihalari ishlab chiqildi (908-son 13.11.2017, 21-son 10.01.2018, 112-son 15.02.2018) hamda 2 ta Vazirlar Mahkamasining qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasi o'rnatilgan tartibda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3529-son qaroriga muvofiq "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Shuningdek, metrologiya sohasini xalqaro normalar bilan uyg'unlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri ishlab chiqildi hamda tegishli vazirlik, idoralar bilan kelishilib Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Avtotransport vositalarining eksport saloxiyatini oshirish, shuningdek, respublikada ushbu soxada bajarilayotgan sinov natijalarini xalqaro darajada tan olinishiga erishish maqsadida BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi yagona va global qoidalarini qo'llash bo'yicha Bitim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3526-son qarori bilan ratifikatsiya qilindi.

Respublikada organik mahsulotlarni ishlab chiqishni kengaytirish yuzasidan Xukumat qarori loyihasi tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasiga va "O'zbekoziqovqatxolding" XKga kiritildi.

*Ma'lumot uchun: qaror loyihasi kelgusida qayta ishlash va tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish uchun Qishloq ho'jaligi vazirligiga yuborildi.*

Energiyani tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirish maqsadida "Tashkilotni qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqarish qurilmalari tayyorlashga ixtisoslashgan tashkilot sifatida identifikatsiyalash mexanizmi

to'g'risidagi Nizom" ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 noyabrdagi 908-son qarori bilan tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son qaroriga muvofiq ichki turizmni rivojlantirish, hamda yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan transport vositalarini sertifikatlashtirishni soddalashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 25 apreldagi 237-sonli qarori bilan tasdiqlangan Umumiy texnik reglamentga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Xukumat qarori loyihasi ishlab chiqildi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Shuningdek, xorijiy tajribani (Yaponiya, Koreya, MDH davlatlari) o'rgangan xolda tadbirkorlik faoliyatiga aralashmagan xolda iste'molchilarni hamda ichki\_bozorni xavfsizligi kafolatlanmagan va sifatsiz mahsulotlardan ximoyalash maqsadida savdodagi mahsulotlarni sinovdan o'tkazish tartibi va sifatsiz mahsulotlar to'g'risidagi yagona ma'lumotlar bazasani shakllantirish bo'yicha Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi Hukumat qarori loyihasi ishlab chiqildi.

### **Standartlashtirish va texnik jixatdan tartibga solish bo'yicha**

Tadbirkorlik sub'ektlariga qulaylik yaratish maqsadida 1 230 ta texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi amaldagi normativ hujjatlar "O'zstandart" agentligi veb-saytiga joylashtirildi hamda ularni bepul yuklab olish imkoni yaratildi.

2017-2018 yillarda 1133 ta xalqaro standartlar amaliyotga joriy etildi. Natijada xalqaro standartlarning soni 3807 taga yetkazildi. Jumladan, BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasining meva, sabzavot va quritilgan qishloq ho'jalik mahsulotlariga tegishli 77 ta standartlari (shulardan, 24 tasi meva, 32 tasi sabzavot va poliz ekinlari, 21 tasi quritilgan mahsulotlar uchun), Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining 24 ta "Kodeks alimentarius" standartlari qabul qilindi.

Natijada amaldagi standartlarning xalqaro talablar bilan uyg'unlashganlik darajasi 13 % dan 17,1 %ga yetkazildi.

Ma'lumot uchun: ushbu standartlar agentlikning rasmiy veb-saytida foydalanish uchun keng omma e'tiboriga xavola etildi. Qo'shimcha ravishda eksportyorlarga standart talablarini tushuntirish maqsadida 300 dan ziyod seminarlar o'tkazilib, 2000 dan ortiq konsultativ xizmatlar ko'rsatildi.

"Xalol" standarti qabul qilinib, sertifikatlashtirish idorasining faoliyati yo'lga qo'yildi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini Yevropa bozorlariga eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida xalqaro "Global G.A.P." standarti qabul qilindi.

Islom davlatlari standartlashtirish va metrologiya instituti (SMIIC)ga a'zolik kelishuvini ratifikatsiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilib 2018 yil 30 aprel kuni Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

2018 yilda Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo Kegashining raisligi O'zbekiston Respublikasiga topshirilib, joriy yilning 26-28 iyun kunlari MDH davlatlarining Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralari rahbarlarining 53-yig'ilishi o'tkazish bo'yicha ishlar tashkillashtirilmoqda. Ushbu yig'ilishda kelgusi yillarda hamkorlikda Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida amalga oshiriladigan ishlar strategiyasi muhokamasi bo'lib o'tadi.

Respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xalqaro talablarga moslashtirish va tadbirkorlik sub'ektlariga qulayliklar yaratish maqsadida 1102 ta tashkilotning standartlari o'rniga 24 ta yagona talablarni belgilovchi davlat standartlari qo'rinishida ishlab chiqish rejalashtirilgan bo'lib, hozirgi kunda reja asosida 15 ta davlat standartlari ishlab chiqildi.

Ma'lumot uchun: qovrulgan pista, yong'oqva no'xotlar mahsuloti uchun 75 ta tashkilotning standarti o'rniga 1 ta davlat standarti, sanitariya – gigenik maqsadlar uchun

mo'ljallangan qog'oz va qog'oz buyumlari mahsuloti uchun 82 ta tashkilotning standarti o'rniga 1 ta davlat standarti ishlab chiqilmoqda).

Shuningdek, 7 ta (moylar, liftlar, gazda ishlaydigan uskunalar, veterinariya dori vositalari, avtomobil va avia yoqilg'i, portlash xavfi bo'lgan muhitlarda ishlovchi uskunalar, go'sht) umumiy texnik reglamentlar va 1 ta (gaz to'ldirish kompressorlari) maxsus reglament qabul qilinib, ularning umumiy soni 39 taga yetkazildi. Natijada, respublikada 1 600 ta standartlarni qo'llanishi ixtiyoriylikka o'tkazildi.

### **Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish va eksportga ko'maklashish bo'yicha**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 iyundagi PQ-3077-son qaroriga muvofiq muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtirish muddatlari 3 ish kunigacha qisqartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoniga asosan, deklaratsiya yo'li bilan muvofiqligi tasdiqlanadigan mahsulot turlari 15 tadan 45 tagacha oshirildi.

"O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5414-sonli Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari"ga (Adliya vazirligidan 1458-son bilan ro'yxatga olingan) sertifikatlashtirish jarayonini soddalashtirishga qaratilgan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur o'zgartirish 2018 yil 1 iyuldan boshlab aynan bir xil tovarlarga bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakt) doirasida muvofiqlik sertifikatini bir kalendar yilidan oshmagan muddatga bir marotaba taqdim etish imkonini beradi.

Yevropa davlatlariga vino mahsulotlarini eksport qilish uchun "VI-1 sertifikati"ni berish tizimi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida «Ziyorat turizmi» ni rivojlantirish maqsadida, «O'zstandart» agentligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Din ishlar bo'yicha qo'mitaning qo'shma qaroriga muvofiq, «Halol talablar asosida mahsulotlar va xizmatlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida» gi Nizom davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun Adliya vazirligiga kiritildi.

Yevropa davlatlariga eksport qilishda qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida SYe markirovkani mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'llash uchun Turkiya, Ukraina, Germaniya va Slovakiya davlatlarining sertifikatlashtirish idoralari bilan muzokaralar o'tkazildi va hamda tegishli tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish maqsadida Kelishuv loyihalari tayyorlandi.

4,34 mlrd. so'mlik 81 dona sinov va o'lchash uskunolari xarid qilindi. Natijada, Andijonda avtomobil extiyot qismlarini, Buxoroda kimyo va idish yuvish mahsulotlarini, Surxondaryoda qishloq xo'jaligi, meva sabzavot va quritilgan meva mahsulotlari hamda Samarqandda Birlashgan millatlar tashkiloti Yevropa iqtisodiyot komissiyasi (YeEK OON)ning avtomobil mahsulotlariga bo'lgan 89 ta xalqaro standartlari talablari asosida sinash imkoni yaratildi.

Xisobot davrida 1256 ta korxonalarda sifat menejmenti tizimlari joriy etildi va bunday korxonalar soni 7698 taga yetkazildi. Shundan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 27 ta korxonada oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimi - ISO 22000 standarti joriy qilindi va ularning soni 156 taga yetkazildi.

### **Akkreditatsiya bo'yicha**

Eksportyorlarga qulaylik yaratish maqsadida 8 ta sinov laboratoriyalari halqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. Xalqaro tan olingan muvofiqlikni baholash organlari soni 29 taga (12 ta laboratoriya, 1 ta SI, 11 ta SMT va 5 ta POI) yetkazildi. Olib borilgan ishlar natijasida rasmiylashtirilgan sertifikatlarning 89 ta davlatda tan olinishiga imkon yaratildi.



Ma'lumot uchun: sinov natijalarini chet davlatlarida tan olinishini ta'minlash borasida 2020 yilgacha tizimdagi 14 ta sinov laboratoriyalarini xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tkazish belgilangan.

## **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tadbirkorlarga va aholiga interaktiv xizmat ko'rsatish bo'yicha**

Rasmiylashtirilgan sertifikatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Yagona darcha" unifikatsiyalashtirilgan bojxona axborot tizimiga o'z vaqtida va to'liq hajmda kiritilishi ta'minlandi.

Agentlik tomonidan "Sertifikat" elektron dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etildi hamda hisobotlar va Davlat reestrlarini on-layn rejimda olish, kelib tushgan arizalarning muddatlarini nazorat qilish, ko'rsatilayotgan xizmatlarni shaffofligi ta'minlandi.

Shuningdek, barcha sertifikatlashtirish idoralarida on-layn arizalarni qabul qilish tizimi joriy etildi.

## **Metrologiya bo'yicha**

Milliy etalonlar bazasini takomillashtirish maqsadida Spektral koeffitsienti o'tkazuvchanligi va optik zichlik hamda Harorat etalonlari harid qilinib ularning umumiy soni 12 donaga yetkazildi.

Shuningdek, o'lchash natijalarining kuzatuvchanligini ta'minlash maqsadida birinchi navbatda zarur bo'ladigan umumiy qiymati 667,6 ming dollarlik 5 turdagi etalon va yuqori aniqlikdagi o'lchov vositalarini xarid qilish bo'yicha sharnoma imzolangan.

Respublikada amalga oshirilgan o'lchovlar natijalarini xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 apreldagi "O'zbekiston Respublikasining O'lchov va tarozilar bosh konferentsiyasining assotsiatsiyalashgan a'zosi maqomini olishi to'g'risida"gi PQ-3663-sonli qarori qabul qilindi va ushbu qarorga muvofiq a'zo bo'lish bo'yicha yuborilgan murojaat xalqaro tashkilot tomonidan maquullandi.

Xalqaro Atom Energiyasi Agentligining (MAGATE) texnik yordami loyihasining 1-bosqichida radiatsion va yadroviy xafsizlik sohasida metroologik taminotni rivojlantirish maqsadida yuqori aniqlikdagi dozimetr va spektrometr xarid qilinib laboratoriya tashkil etildi. Shuningdek, ushbu loyihaning 2-bosqichida ionlashtiruvchi va rentgen nurlanish sohasidagi ikkilamchi etalonlar maxsus dozimetrik laboratoriyasini tashkil etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi shahar va tumanlarda jismoniy va yuridik shaxslar bilan 44 ta sayyor qabullar o'tkazildi.

Ushbu qabullarda kelib tushgan murojaatlar asosida viloyat markazlaridan chekka tumanlarida yashovchi aholi va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida viloyatlarning chekka tumanlarida 15 ta maishiy hisoblagichlarni qiyoslash shaxobchalari tashkil etilib, ularning soni respublika bo'yicha 37 taga yetkazildi.

## **Kadrlar tayyorlash dasturi bo'yicha**

"O'zstandart" agentligi tizimidagi mutaxassislar malakasini oshirish hamda xalqaro darajada tayyorlash maqsadida Koreya, Malayziya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Germaniya, Armaniston, Oozog'iston, Belarus va Moldova davlatlarida 310 nafar mutaxassislar amaliyot o'tadilar.

Shuningdek, Xitoy Xalk Respublikasining "Bir mintaqa Bir Makon" dasturi asosida 2018 yilda "Oziq-ovqat xavfsizligi import-eksport nazorati", "Import-eksport qishlok xo'jaligi mahsulotlarini nazorati", "Don va don mahsulotlarini qayta ishlash va tekshirish

texnologiyasi" mavzularida 200 nafar xodimni Xitoy Xalk Respublikasida malakasini oshirish rejalashtirilgan.

Xalqaro tashkilotlardan ekspertlarni jalb etgan holda o'quv seminarlari tashkil etilib, ularda 50 dan ortiq mutaxassilar ishtiroki ta'minlandi. Buning natijasida 42 nafar mutaxassislar xalqaro ekspert-auditorlik maqomiga ega bo'ldilar (20 nafar xodim "Halol" standartlari bo'yicha SMIIC reestriga, 22 nafar xodim ISO 22000 standarti bo'yicha EOQ reestriga kiritildi, qolgan mutaxassislarning imtihon natijalari kutilmoqda).

Sertifikatlashtirish milliy tizimida jami 97 ta ekspert-auditorlar faoliyat yuritmoqda. 2017-2018 yillar davomida 684 ta xodim sertifikatlashtirildi.

"O'zstandart" agentligi bilan Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo texnologiya instituti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent farmatsevtika instituti va Turin politexnika universiteti talabalari bilan amaliyot o'tash, iqtidorli kadrlarni tayyorlash va ishga jalb qilish maqsadida bitim va memorandumlar imzolandi. Ular asosida oliy ta'lim muassalari bilan yillik amaliyot rejalari ishlab chiqildi.

"O'zstandart" agentligida 2017/2018 o'quv yilida Toshkent davlat texnika universitetining 124 nafar, Toshkent kimyo texnologiya institutining 51 nafar, Toshkent to'qimachilik yengil sanoat institutining 12 nafar, Toshkent farmatsevtika institutining 17 nafar talabalari ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotini o'tamoqdalar.